

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA KREDITLASH JARAYONINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20109246>

Ilmiy rahbar: **Eshonov Muhammadayub Xoshimjon o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o'qituvchisi,

Abdusalomov Shahboz Ulug'bek o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyoti va boshqaruvo" fakulteti

"Bank ishi va audit" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: shahbozabdusalomov10@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimida kreditlash jarayonining rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy o'sishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tijorat banklarining kredit siyosati, kredit portfeli tarkibi va sifat ko'rsatkichlari, shuningdek, kreditlashda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. So'nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi natijasida kreditlash hajmi va samaradorligi oshib borayotgani asoslab berilgan. Shu bilan birga, maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish, iste'mol kreditlari ulushining ortishi hamda banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimining ahamiyati alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

kreditlash, bank tizimi, tijorat banklari, kredit portfeli, kredit siyosati, iqtisodiy o'sish, moliyalashtirish, kichik biznes, risklarni boshqarish, raqamli bank xizmatlari, kredit samaradorligi, bank islohotlari.

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции развития кредитного процесса в банковской системе Узбекистана, его роль и значение для экономического роста. Освещаются кредитная политика коммерческих банков, структура и качественные показатели кредитного портфеля, а также проблемы, возникающие в кредитовании, и пути их устранения.

Обосновывается тот факт, что объем и эффективность кредитования растут в результате реформ, проведенных в банковской системе в последние годы, внедрения цифровых технологий и совершенствования механизмов кредитования. Одновременно в статье отдельно рассматриваются вопросы финансирования малого бизнеса и предпринимательства, увеличение доли потребительских кредитов и важность системы управления рисками в деятельности банков. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по дальнейшему развитию системы кредитования.

Ключевые слова

кредитование, банковская система, коммерческие банки, кредитный портфель, кредитная политика, экономический рост, финансирование, малый бизнес, управление рисками, цифровые банковские услуги, эффективность кредитования, банковские реформы.

Abstract

This article analyzes the development trends of the lending process in the banking system of Uzbekistan, its role and significance in economic growth. The credit policy of commercial banks, the composition and quality indicators of the loan portfolio, as well as the problems encountered in lending and ways to eliminate them are highlighted. The fact that the volume and efficiency of lending have been increasing as a result of the reforms carried out in the banking system in recent years, the introduction of digital technologies and the improvement of lending mechanisms is substantiated. At the same time, the article separately considers the financing of small businesses and entrepreneurship, the increase in the share of consumer loans, and the importance of the risk management system in the activities of banks. Based on the results of the study, scientific and practical proposals for further development of the lending system are developed.

Keywords

lending, banking system, commercial banks, loan portfolio, credit policy, economic growth, financing, small business, risk management, digital banking services, credit efficiency, banking reforms.

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarga, ayniqsa bank tizimiga jadal kirib borib, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini tubdan yangilamoqda. Raqamli transformatsiya bank operatsiyalarining samaradorligini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotning

barqaror rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda xalqaro bank amaliyotida raqamli platformalar, mobil ilovalar, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt hamda avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil vositalari keng qo'llanilib, xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar uchun qulaylik yaratishda muhim omilga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni kengaytirish, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish, onlayn kreditlashni yo'lga qo'yish hamda raqamli identifikatsiya xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [1]. Shuningdek, 2025-yil 25-oktabrda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Unda sog'liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bojxona-soliq, transport, tog'-kon va qishloq xo'jaligi kabi ustuvor sohalarda sun'iy intellekt asosida 100 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgani ta'kidlandi. Mazkur loyihalarni samarali bajarish uchun zamonaviy hisoblash infratuzilmasi, jumladan, superkompyuterlar va data-markazlar zarurligi qayd etildi. Shu maqsadda joriy yilda 16 ta superkompyuter xarid qilish uchun 50 million dollar ajratilib, kelgusi yilda ushbu mablag'ni ikki barobarga oshirish rejalashtirilgan.

Muhokama va takliflar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston bank tizimi to'g'risida yillik hisobot - 2023" ma'lumotlarida bank sektorida amalga oshirilgan raqamli islohotlar, elektron to'lov tizimlarining rivojlanish darajasi hamda foydalanuvchilar soni dinamikasi batafsil tahlil qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirishga doir Farmoniga muvofiq, ushbu strategiyada mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular qatorida bank sohasida raqamli xizmatlarni kengaytirish muhim o'rin egallaydi.[2]

Iqtisodchi olim E.A. Muminovning ilmiy ishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida fintex texnologiyalarining o'rnini va ularni joriy etish bo'yicha xorijiy tajriba, xususan Yaponiya misolida o'rganilgan. Tadqiqotda fintexning shakllanish bosqichlari, rivojlanish tarixi, qo'llanilish sohalari hamda megabanklar va internet-moliya segmentlari asosida yuzaga kelish mexanizmlari yoritilgan. Bundan tashqari, yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi,

fintex kompaniyalari faoliyati va ular tomonidan yaratilayotgan dasturiy mahsulotlar ham tahlil qilingan.

PwC kompaniyasining “Fintech and Banking: Partnership Models in Emerging Markets” nomli tadqiqotida esa raqamli banklar va fintex tashkilotlari oʻrtasidagi hamkorlik modellari hamda ularning samaradorligi keng koʻlamda oʻrganilgan.[3]

M. Maxmudovaning ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni mavjud biznes modellari, ayniqsa bank tizimi uchun muhim oʻzgarishlar va muammolarni yuzaga keltirayotgani taʼkidlanadi. Tadqiqotda mijozlarga yoʻnaltirilganlik va xizmatlarni individuallashtirish raqamli bank strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida baholanadi. Ushbu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mijozlar tajribasini chuqur oʻrganish va ularning manfaatlariga xizmat qiluvchi innovatsiyalarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ishda Oʻzbekiston bank sektorida va jahonning yetakchi bank tizimlarida raqamli texnologiyalarni qoʻllash amaliyoti, mavjud muammolar va istiqbolli yoʻnalishlar tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini Oʻzbekiston bank tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyot rivojlanishiga taʼsirini har tomonlama oʻrganishga qaratilgan yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot davomida nazariy, empirik hamda statistik usullar uygʻun holda qoʻllanildi. Asosiy metod sifatida tizimli yondashuv tanlanib, u orqali bank tizimi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy, moliyaviy va institutsional oʻzgarishlar aniqlab berildi. Shuningdek, ishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ekspert baholash kabi usullardan samarali foydalanildi.

Bank tizimining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy taraqqiyotga koʻp tomonlama taʼsir koʻrsatadi. Avvalo, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank operatsiyalarini avtomatlashtirish orqali xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, onlayn kreditlash, mobil toʻlov tizimlari va raqamli identifikatsiya vositalari inson omilini qisqartirib, operatsiyalarning tezligi va aniqligini kuchaytiradi. Natijada moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi hamda aholi va tadbirkorlar uchun vaqt va xarajatlar tejaladi.[4]

Ikkinchi tomondan, raqamli transformatsiya bank tizimida shaffoflik va hisobdorlikni mustahkamlaydi. Elektron maʼlumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari va blokcheyn texnologiyalari orqali barcha operatsiyalarni ochiq va nazorat qilinadigan shaklda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa moliyaviy xavflarni kamaytirish, korrupsiyani cheklash hamda davlat moliyaviy

nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchi muhim jihat sifatida esa raqamli bank xizmatlarining kengayishi moliyaviy inklyuziyani oshiradi. Hatto chekka hududlarda yashovchi aholi ham mobil ilovalar orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning iqtisodiy faolligini oshiradi va ichki bozorning kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, raqamli bank tizimini joriy etish bilan birga ayrim muammo va xatarlar ham yuzaga keladi. Xususan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash va raqamli infratuzilmaning barqarorligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayrim hollarda texnik nosozliklar, ma'lumotlarning yo'qolishi yoki noqonuniy foydalanilishi iqtisodiy va huquqiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonida risklarni samarali boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri bo'lishi zarur. Ayniqsa, raqamli savodxonlikni oshirish uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.[5]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank tizimining raqamli rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va moliyaviy inklyuziya darajasining ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy bank va statistika organlari ma'lumotlariga asoslangan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida raqamli to'lovlar hajmi 5,6 barobarga oshgan, mobil va internet-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa ikki barobar ko'paygan. Bu esa bank operatsiyalarining tezkorligi va shaffofligini ta'minlash bilan birga, iqtisodiy subyektlar o'rtasida pul aylanishining samaradorligini ham yaxshilagan.[6]

Empirik tahlil natijalariga ko'ra, raqamli bank xizmatlari ulushi bilan yalpi ichki mahsulot o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Xususan, raqamli to'lovlar ulushi 1 foizga oshganda, iqtisodiy o'sish o'rtacha 0,35-0,4 foizga ko'tarilishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa raqamli bank xizmatlari nafaqat xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish, balki ishlab chiqarish va savdo jarayonlarida likvidlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning kengayishi kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilab, moliyaviy inklyuziyani oshirgan. Masalan, 2025-yilda elektron kredit arizalarining ulushi umumiy arizalarning 52 foizini tashkil etib, 2020-yildagi 13 foiz ko'rsatkichga nisbatan to'rt barobar o'sgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni qariyb uch barobar oshgan. Bu esa bank tizimiga raqamli platformalarning keng joriy etilishi hamda aholining moliyaviy savodxonligi ortib borayotganidan dalolat

beradi. Elektron to'lovlar ulushining oshishi natijasida naqd pul aylanishining qisqarishi iqtisodiyot uchun ijobiy omil hisoblanadi. Shuningdek, onlayn kreditlash hajmining sezilarli darajada ortishi kichik biznes va xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.[7]

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim va hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ularning tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada moliyaviy inklyuziya darajasi oshib, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaymoqda.

Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiyotda pul aylanishining jadallashishiga, investitsion faollikning ortishiga hamda umumiy iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Amaliy misol sifatida "Aloqabank" va "Turonbank" faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalarga o'tish banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirgan, mijozlar bazasini kengaytirgan va umumiy samaradorligini oshirgan. Bu esa raqamli transformatsiyaning amaliy iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *O'zbekiston bank tizimi to'g'risida yillik hisobot – 2023*. Toshkent, 2024. – 45–67-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-6079-son Farmon*. Toshkent, 2020. – 3–15-betlar.
3. World Bank. *Digital Economy for Uzbekistan: Policy Note*. Washington DC, 2022. – pp. 22–38.
4. World Bank & IMF. *Republic of Uzbekistan – Financial Sector Assessment Program (FSAP)*. Washington DC, 2023. – pp. 55–72.
5. World Bank. *Unlocking the Benefits of Digital Payments: Insights from Uzbekistan*. Washington DC, 2021. – pp. 30–49.
6. Muminova E.A. *Iqtisodiyotni raqamlashtirishda FinTex texnologiyalar va xorijiy tajriba*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. – 88–102-betlar.
7. PwC. *Fintech and Banking: Partnership Models in Emerging Markets*. London, 2020. – pp. 14–27